

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 6 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 6

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 6



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№6 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2024-6>

Бош муҳаррир:

Тўхтасинов Илҳом

п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:

Тўхтасинов Илҳом

д.п.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:

Tuhtasinov Ilhom

DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат

масъул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахыммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабаев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат

отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli

Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat

PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,


Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

1. Rashidova Manzura Bakhtiyorovna THE INFLUENCE OF CONFUCIAN TRADITIONS ON THE KOREAN LANGUAGE.....	5
2. Alisher Rustamov Abduhakimovich A SYSTEM OF EXERCISES AND TASKS FOR THE DEVELOPMENT OF WRITTEN SPEECH SKILLS OF HIGH SCHOOL STUDENTS THROUGH PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS.....	10
3. Ziyayeva Kamola Ziyaiddinovna THE LINGUISTIC AND CULTURAL DIMENSIONS OF HUMOUR: A STUDY OF SPEECH GENRES AND THEIR ROLE IN COMMUNICATIN.....	15
4. Davlatova Xulkaroy Uktamovna, Botiova Valida Shuhrat qizi SPECIFIC ASPECTS OF SPEECH COMMUNICATION AND INTERNET COMMUNICATION.....	19
5. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA‘MINOTI.....	24
6. Pardayeva Iroda Mamayunusovna ALISHER NAVOIY IJODIDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TASVIRI.....	29
7. Aliyeva Zebo Akram qizi MIRATIVLIK KATEGORIYASI GRAMMATIK KO‘RSATKICH SIFATIDA.....	35
8. Mirzayev Shukurullo Abduqodir o‘g‘li TOPIK II 53- YOZISH SAVOL TURLARI VA YOZISH USULLARI.....	41
9. Bayonkhanova Iroda Furkatovna KOREYS TILINI O‘RGANISHDA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	47
10. Hasanov Suhrob Shavkat ugli SYMBOLS AND ALLEGORIES IN THE PROSE OF ISAJON SULTAN.....	53
11. Улаш Нематович Бобоев МОДЕЛЬ СТРАТЕГИЙ ПЕРЕВОДА НА РУССКИЙ ЯЗЫК ШОК-ТЕЙМЕНТА В СМИ УЗБЕКИСТАНА И ФРАНЦИИ.....	60
12. Sadriddinzoda Safiya Shaxobiddinovna AMPHIBOLOGY IN ENGLISH RELIGIOUS LEXICOLOGY.....	65
13. Eshimova Sharofat Kenjaboyevna SINESTEZIYA - METAFORANING BIR TURI SIFATIDA.....	70
14. Umirzoqova Oynisa THE COMPARATIVE ANALYSIS OF THE TEMPORAL CATEGORY IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES.....	76
15. Alibekova Dilrabo Abdiraimovna COHISION OF NATURALISM, OPTIMISM AND REALISIM IN THE WORKS OF HECTOR MALOT AND THEODOR DREISER.....	83
16. Gulirukhsor Ruzikulova Gofur kizi A COMPARATIVE ANALYSIS OF FACE-RELATED IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK.....	88
17. Xalimova Firuza Rustamovna MATN DOIRASIDA BADIY KONSEPTNING SHAKLLANISHI.....	96
18. Xamidova Dilorom Olimjonovna LUQMON BO‘RIXONNING “JAZIRAMADAGI ODAMLAR” ROMANIDA BADIY TILNING IFODALANISHI.....	102

19. Xaydarova Nigora Tuxtasunovna AYOL VA ERKAKLARNING MUHOQOT USULLARI.....	107
20. Shamshoda Rustamova O‘SMIR BOLALAR NUTQIDAGI INNOVATSIYALAR VA ULARNING IFODALANISHI.....	112
21. Karshieva Shokhista Kholikul kizi SYNTAX AND SEMANTICS OF ERGATIVE CONSTRUCTIONS.....	119
22. Musayeva Shaxlo Kudratovna QISSALARDA IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRI VOQEALARI TASVIRINING QIYOSIY TAHLILI. (Nosir Fozilov asarlari misolida).....	125
23. N.J.Sulaymanova IJOBIY BAHO PRAGMATIK MAZMUNINI IFODALOVCHI NUTQIY AKTLAR.....	131
24. Azimbayeva Nargiza Tuxtamuradovna O‘ZBEK VA FORS TILLARIDA XULQ-ATVORNI IFODALOVCHI LEKSIK KONSTRUKSIYALAR TASNIFI.....	135
25. Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna THE ROLE OF UZBEK AND ENGLISH PHRASEOLOGY IN CROSS-CULTURAL COMMUNICATION.....	139
26. Gulruxsor Xoliyorova TERMINOLOGIK TEZAVURSLARNING LINGVISTIK XOSLANISHI.....	143
27. Alisher Rustamov Abduhakimovich THE HISTORY OF TEACHING AND LEARNING ENGLISH WRITING SKILLS IN UZBEKISTAN (POST-SOVIET STATE). PEDAGOGICAL DIAGNOSTIC APPROACH.....	149
28. Kubaeva Nafisa Alisher qizi UNLOCKING THE POWER OF IDIOMS: HOW FIGURATIVE LANGUAGE ENRICHES COMMUNICATION.....	154
29. Dilafro‘z Amonova KOREYS ADABIYOTI TARIXIDA AYOLLAR IJODIYOTI.....	158
30. Obruyeva Gulchexra Xamrokulovna ATOQLI OTLARNING FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARKIBIDA APELLATIVIZATSIYAGA UCHRASHI...164	164
31. Esanova Maftuna Bahodirovna YUNON-LOTIN TIBBIYOT ATAMALARINING TARIXI VA ULARNING ZAMONAVIY TIBBIYOTDAGI O‘RNI.....	168
32. Azimova Yulduz Baxtiyor qizi AVTOBIOGRAFIK DISKURSNING UMUMIY TAVSIFI.....	173
33. Maxmudova Dilshoda Kurbonbayevna KOMPOZITSION TASHKILLANISH VA PEYZAJ MODIFIKATSIYASI.....	177



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Davlatova Xulkaroy Uktamovna

(PhD) docent

Andijan State Institute of Foreign Languages

Faculty of English languages and literature

Department of Theoretical aspects of English languages

Botiova Valida Shuhrat qizi,

the student of Master's Degree

Andijan State Institute of Foreign Languages

SPECIFIC ASPECTS OF SPEECH COMMUNICATION AND INTERNET COMMUNICATION



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15069148>

ABSTRACT

The rapid development of internet networks has led to the emergence of new discipline in linguistics, media linguistics which focuses on special functionality in of language signs in modern media. Social media platforms have become integral to modern communication and they present a particularly rich and complex field of study for media linguistics. This article explores ideas about media linguistics, lexical-semantic and functional media communication in current English and Uzbek languages. The message on the Internet, particularly, on social media can be delivered to its addressers as its targeted way with the help of phonographic, lexic and graphic tools in communication. The author critically analyzed the viewpoints of Uzbek and English linguists and presented her own. Students studying the lexicology of Uzbekistan and English might find this page useful.

Key words: media linguistics, media text, phonographic tool, lexical tool, graphic tool, lexical-semantic, addresser, subjective attitude, emotions.

Davlatova Xulkaroy Uktamovna

Andijon davlat chet tillari instituti

Ingliz tili adabiyoti fakulteti

Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasida dotsenti

Botirova Valida Shuhrat qizi

Andijon davlat chet tillari instituti magistranti

Ilmiy rahbar: Davlatova Xulkaroy Uktamovna

(PhD) filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

E-mail: hulkaroydavlatova489@gmail.com

NUTQIY MULOQOT VA INTERNET MULOQOTINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

ANNOTATSIYA

Internet tarmoqlarining jadal rivojlanishi tilshunoslikda zamonaviy ommaviy axborot vositalarida til belgilarining maxsus funktsionalligiga e'tibor qaratuvchi medialingvistika singari yangi

fanning paydo bo'lishiga olib keldi. Ijtimoiy media platformalari zamonaviy muloqotning ajralmas qismiga aylandi va ular media lingvistikasi uchun ayniqsa ko'p qirrali va murakkab tadqiqot sohasini taqdim etadi. Ushbu maqolada hozirgi ingliz va o'zbek tillarida media lingvistikasi, leksik-semantik va funksional media aloqasi haqidagi fikrlar o'rganiladi. Internetdagi, xususan, ijtimoiy tarmoqlardagi xabar muloqotda fonografik, leksik va grafik vositalar yordamida o'z addresatiga ko'zlangan maqsadiga muvofiq yetkazilishi mumkin. Maqolani tayyorlash jarayonida muallif ingliz va o'zbek tilshunoslarining fikrlariga tanqidiy yondashib, o'z mulohazalarini tanqidiy bayon qilgan. Ushbu maqola ingliz va o'zbek leksikologiyasini o'rganuvchilari uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: medialingvistika, mediamatn, fonografik vosita, leksik vosita, grafik vosita, leksik-semantik, addresat, subyektiv munosabat, hissiyotlar.

Давлатова Хулкаррой Уктамовна

доцент Андижанский государственный институт иностранных языков Факультет английского языка и литературы

Кафедра теоретических аспектов английского языка

Ботиова Валида Шухрат кизи,

студентка магистратуры Андижанский государственный институт иностранных языков

АННОТАЦИЯ

Стремительное развитие интернет-сетей привело к появлению новой дисциплины в лингвистике, медиалингвистике, которая фокусируется на особой функциональности языковых знаков в современных медиа. Платформы социальных сетей стали неотъемлемой частью современной коммуникации и представляют собой особенно богатую и сложную область изучения для медиалингвистики. В этой статье рассматриваются идеи о медиалингвистике, лексико-семантической и функциональной медиакommunikации в современных английском и узбекском языках. Сообщение в Интернете, в частности, в социальных сетях, может быть доставлено адресатам как его целевой способ с помощью фонографических, лексических и графических инструментов в коммуникации. Автор критически проанализировала точки зрения узбекских и английских лингвистов и представила свою собственную. Студенты, изучающие лексикологию Узбекистана и английский язык, могут найти эту страницу полезной.

Ключевые слова: медиалингвистика, медиатекст, фонографический инструмент, лексический инструмент, графический инструмент, лексико-семантический, адресант, субъективное отношение, эмоции.

Kirish. Elektron ommaviy axborot vositalari nuqtai nazaridan Internet muloqotining o'ziga xos xususiyatlari, Internet jurnalistikasi masalalari turli jihatlardan tadqiq etila boshlagan bo'lsa-da (Alimov B.S. 2018), o'zbek tilshunosligi tadqiqotlar oqimida Internet muloqotida shaxslararo nutqiy faoliyat turlarining o'rni va ularni reallashtiruvchi lingvistik vositalar, ijtimoiy tarmoqlar materiallari og'zaki va yozma shakllarining nisbati hali o'rganilmagan.

Xususan, shaxslararo muloqot tizimi yangi bosqichga ko'tarildi. Shunday ommaviy muloqot vositalaridan biri – ijtimoiy tarmoqlardir. “Ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar tomonidan e'lon qilinayotgan ma'lumotlar, qisqa vaqt ichida shaxsiylik doirasidan chiqib ketdi. Ayni paytda deyarli har qanday ahamiyatga ega jamiyat (yoki muayyan mikrojamiyatlar) uchun ushbu ahamiyatli bo'lgan voqealik ijtimoiy tarmoqlarda sharhlanadi va baholanadi. Shu bilan birga, odamlarning shaxsiy muloqotlari ham Internetga ko'chdi; elektron muloqot yuzma-yuz va telefon muloqoti bilan raqobatlasha boshladi”.

Asosiy qism. Bugungi kunimizda kommunikatsiyaning jadal suratlar bilan rivojlanib borishini bir nechta bosqichlarda ko'rishimiz mumkin, jumlada: internet muloqoti. Bu asosan ijtimoiy tarmoq bilan bevosita bog'liq jarayon bo'lib hisoblanadi. Internet muloqotining bu turini biz bir nechta bosqichlarini qamrab olganligini ko'ramiz, quyida ularga batafsil to'htalib o'tmoqchimiz.

Ularning dastlabkisi ijtimoiy aloqada insonlarning bir-biri bilan bo'lgan jarayon tushuniladi. Buni biz muloqotga kirishuvchilarning o'ziga qulay fursatda ijtimoiy tarmoqqa kirib, berilgan postdagi fikr-mulohazalarni o'qib va ularga yozma ravishda izoh qoldirishi mumkin. Buning uchun ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarnidan aniq belgilangan vaqt, sharoit va muhit talab etilmaydi, bu esa foydalanuvchilarga qulaylik tug'diradi.

Navbatdagisi esa kishilar bir-biri bilan axborot almashish uchun video, rasm, ovozli habar va boshqa ma'lumotlarni almashinishlari mumkin. Internet foydalanuvchilari bir nechta guruhlarda muloqotni amalga oshiradilar, Bunday guruhlariga sinfdoshlar, kasbdoshlar, qo'shnilar, qarindoshlar va boshqalarni kiritamiz. Muloqotga kirishuvchilarning o'z maqomini belgilash, suhbat erkinligi, lingvistik va audiovizual vositalarning cheksiz tanlovini belgilaydi.

Ijtimoiy hamkorlik - imkoniyatlarini kengaytirish, online biznesni rivojlantirish, mijozlar bilan uzuliksiz aloqani bardavom ettirishni o'z ichiga oladi. Bunda dam olishsiz ishlash nazarda tutiladi. Muloqot orqali yaxshi imkoniyatlarga kirishish oson bo'ladi, bunda fikrni qisqa shaklda ta'sirli yetkazish imkonini beradi.

Insonlar o'rtasidagi muloqotning oldinga siljishi va ijoviy natijalarga erishishi, ularni kommunikatsiyaga bo'lgan ehtiyojini yanada oshiradi. Bu fikrimizga yorqin misol tariqasida biroz tarihgа nazar tashlasak, biz o'zbeklar avvallari yangilikni qiyinchilik bilan qabul qilgan avlodlarning ajdodi hisoblanamiz: buni televizorni insonlar orasiga kirish jarayonidan ham bilsak bo'ladi.

Internetning o'zbek segmenti tilining mavjudligi va o'ziga xos jihatlarini o'rganish mavzusi bugungi kunda har jihatdan yangi bo'lsa-da, yaqin kelajakda u tilshunoslik tadqiqotlarida muhim o'rin egallashi aniq bo'lib qoldi. Sababi, bugungi kunda juda qisqa davr ichida internet eng ulkan axborot manbai hamda butun insoniyat faoliyat yuritayotgan axborot almashish vositasi bo'lib qoldi. Uning samaradorligi, uzoq va yaqin masofalardagi foydalanuvchilar o'rtasidagi aloqaning mavjudligi qulay muloqot vositasi sifatida barchani o'ziga birdek jalb qilib qo'ydi. Ayniqsa, pandemiya sharoitida, bu xatto zaruratga aylandi. Ijtimoiy jamiyat doirasidagi idoralararo hujjatlar almashuvi, masofaviy ta'lim, shaxslararo kundalik muloqot kabi inson foliyatiga oid jihatlar shuni taqozo etmoqda.

So'nggi yillarda, mediamatn til mavjudligining keng tarqalgan shakllaridan biri deb talqin qilinib, asosan, media sohasidagi, shu jumladan, internet tarmoqlaridagi tilning ishlashini ya'ni bosma, audiovizual, raqamli va tarmoqli ommaviy axborot vositalari tomonidan namoyish qilingan zamonaviy ommaviy kommunikatsiyalarni o'rganadi. Ronald Karterniing fikriga ko'ra, ushbu atama birinchi bor britaniyalik olim J.Kornerning "Medialingvistika doirasida" maqolasida qo'llanilgan. Mediamatnlar va ularning lisoniy xususiyatlari tadqiqi borasida N.S.Nasrulloevaning "O'zbek va ingliz tillarida kompyuter va internet jargonlarining chog'ishtirma tadqiqi" ga oid izlanishlari, mediamatn kategoriyalari, ularning tuzilish tamoyillari, ommaviy axborot vositalari tili va uslubini o'rgangan xorijiy va yurtimiz olimlari sirasiga M.N.Volodina, Dobrosklonskaya, T.V.Chernishova, A.N.Baranov, G.X.Bakiyevlarni kiritishimiz mumkin.

Shuningdek, K.J.Kumar mediadiskursdagi mediamuloqotning hajmi uning vositalari va ko'lamining oshib borayotgani hisobiga kengayib borayotganligini e'tirof etib, mediamuloqotga internet, televideniya, radio, kino va video materiallar, nashrlar (gazeta va jurnallar) hamda kitoblarni kirg'izadi. Biroq, internet tarmoqlarining oshib borayotganligi tufayli biz bu tasnif doiarsini kengaytirishimiz mumkin. Aloqani internet orqali amalga oshirish turlariga bir nechta ijtimoiy tarmoqni kiritishimiz mumkin, bular barchamizda bugungi kunda birdek tanish bo'lgan va kundalik hayotimizga kirib ulgurgan telegram, instagram, facebook, whatsapp, turli kontent va shakldagi bloglar, You Tube keng tarmoqli bazasi, elektron nashrlar onlayn ilovalari, bular o'z ichiga kun.uz, daryo.uz larni jamlaydi. Elektron pochta tizimini orqali biz rasmiy muloqot o'rnatamiz.

Muhokama/Natijalar. Internet tarmog'idagi virtual hayot rasmiy qoidalardan tashqariga chiqish va so'z o'yini ustun shakllardan biriga aylanganligi, sarkazmning kuchayganligi bilan tavsiflanadi. So'z o'yini – bu lingvokreativ fikrlash va nutqning bir shakli til tashuvchisining nutqiy faoliyatida lisoniy birliklarning o'z va yashirin ma'nolarida ifodalash usuli. Bunday usul kommunikantning shaxsiy lisoniy qobiliyati natijasi sifatida perseptiv niyatini ifodalash maqsadiga mos pragmatik ta'sirga erishish uchun eng qulay va samarali vosita hisoblanadi.

- 1) Qurilayotgan uyning qulashini tekshirgani kelgan komissiya g'isht, qum va sementni chaqirib, so'roq qila boshlabdi:

- G'isht, sen sifatsizsan!
 - Yo'g'-e, menda ayb yo'q.
 Tekshirishsa, haqiqatan ham yaxshi g'isht.
 - Qum, sen sababchisan!
 - Mening aloqam yo'q.
 Qum ham sifatli emish.

Oxiri sementga yuzlanib: «Sen sifatsiz bo'lgansan», deyishsa, sement: «Qo'ysalaring-chi, men u yerda umuman yo'q edim» dermish. («Telegram» tarmog'idan)

2) Sivastopol uyezd merining 23 ta maslahatchisi, 13 ta o'rinbosari, 3 ta yordamchisi, 23 ta maslahatchisi va 13 ta o'rinbosarining har biriga bittadan yordamchi, haydovchi va kotiba, merning kotibiyati, kotibiyati mudiri va yordamchilari, ijro nazorati boshqarmasi, korrupsiyaga qarshi kurashish kengashi, jamoat kengashi, meriya faoliyatini optimallashtirish agentligi, kadrlash boshqarmasi, madaniyat va ma'rifat boshqarmasi, sportni ommalashtirish kengashi, buxgalteriya, va nihoyat topshiriqlarni ijro etuvchi 2 ta xodimi bor. («Telegram» tarmog'idan)

Yuqoridagi misollardan xulosa qilishimiz mumkinki, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining o'z fikrini nostandart tarzda namoyish etish istagi ularning lisoniy va ijodiy qobiliyati, niyati, shaxsiy yo'nalishi, shuningdek, fikran o'ziga teng keladigan o'quvchi bilan bilvosita muloqot o'rnatish maqsadida amalga oshiriladi.

Kundalik aloqa-aralashuv jarayonida kishilar bir-biri bilan munosabat payti o'z his-hayajonini bildiradilar. Bu tuyg'ular yuz ko'rinishini o'zgartirish, qichqirish, baqirish, kulish, yig'lash, turli imo-ishoralar orqali hamda fonetik, grammatik va leksik vositalar bilan ifodalanadi. Hislarning har xilligi (shodlik, erkalash, g'azab, afsus, qo'rqinch kabi) va darajasiga qarab, intonatsiya ham turlicha bo'ladi, vaholanki, fonatsion vositalar, avvalambor, indeksiv funksiyani bajaradilar.

Fonografik vosita. «Tovushlarni uslubiy qo'llash bilan bog'liq qonuniyatlarni yozuvda «aynan» ifodalash imkoniyati cheklangan. Biroq, talaffuz va bayon muvofiqligiga **fonografik vositalar** yordamida erishish mumkin... Qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo'lish, xafa bo'lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatq, olqish, so'roq, ta'kid, qoniqmaslik, norizolik, tilak-istak, qo'llab-quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda yozuvchilar unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish usuli – **fonografik vositalardan** foydalanadilar». Badiiy uslubga xos ana shu usul Internet muloqoti so'zlashuv nutqiga ham kirib keldi:

Voooyyy, chuquuuuurligini qaraaa.

Vay, Mani Ko'chinski mullabuvalarriim. («Facebook» tarmog'idan)

"Speak out, my boy—don't be diffident. The truth is always respectable.

What did you take there?"

"Only a—a—dead cat."

perfectly smoozy for my tired head tonight...loooooooooong week...again... [ElliottM. Drinking Songs]

("Gapirgin, bolam, bunaqa qat'iyatsiz bo'lmagin. Haqiqat har doim hurmatga sazovor. U yerga nimani olib ketuvding? "

"Faqat o'lik mushuk."

bugun tunda charchagan boshim uchun bu juda yaxshi.... uzun hafta hali oldinda...)

Grafik vosita. Internet muloqoti shakllanishi jarayonida yangi usul - adresantning o'z fikriga sub'ektiv munosabatini bildirish, fikrning kommunikant ongiga yetib borishini xohlayotgani ifodasi sifatida jumla yoki mikromatnda to'lig'icha bosh harflardan foydalanish usuli paydo bo'ldi:

O'YLAB GAPIRISH KERAK EDI. («Facebook» tarmog'idan)

The only CRAZY I was was when I married him. I knew right away I made a mistake.(Facebook) (Faqat u bilan turmush qurgan vaqtimda axmoq bo'lgan ekanman. Xato qilganimni darrov anglab yetganman.)

Leksik vosita.

- Yaralangan «cho'loq toshbaqa» hamon sudralmoqda... («Facebook» tarmog'idan)

- “Podvoldagi bolalar” filmidan. (“Facebook”dan)

Xulosa. Foydalanuvchi Internet tarmog'ining tezligi past ishlayotganiga ishora ma'nosini ifodalash uchun “Osmondagi bolalar” filmida ishlatilgan “Yaralangan oqqush hamon uchmoqda” (personajlardan biri yaratgan asar nomi) iborasiga ishora qilmoqda. Boshqa bir foydalanuvchi esa ibora tilga olingan mazkur film nomini o'zgartirib, “Podvoldagi bolalar” (aslida “Osmondagi bolalar”) tarzida qo'llab, kinoyaga kinoya orqali javob yo'llagan. Fikr almashuvning bu tarzidagi tagma'nolar orqali ifodalash-anglash jarayoni kechishi uchun kommunikantlar film syujeti va mohiyati bilan tanish bo'lishlari kerak. Agar aksi bo'lsa, muloqot kutilgan natijani bermaydi.

Tadqiqotchilar diskursning yangi turi – yozma so'zlashuv nutqini e'tirof etmoqdalar. Internet tarmog'idagi yozma nutqiy faoliyat muqarrar ravishda og'zaki nutq bilan bog'liq bo'lib, fonetik, morfologik va sintaktik birliklarda adabiy til me'yorlaridan chekinish, qisqartmalar, noadabiy qatlamga xos so'z boyligi, shuningdek, tarmoqning maxsus grafik dizayni kabilar virtual muloqotning yangi yo'nalishini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Khujayorov M.B. International Journal for Research in Applied Science and Engineering technology. No. 10(4), 2022, pp.2142-2145.
2. Kumar J.K. Mass Communication in India. - Mumbai: Jaico Publishing house. 2009. – 282p.
3. Бакиева Г.Х., Тешабаева Д.М. Медиамаконда матн (Монография). Тошкент, 2019. — 222 б.
4. Баранов А.Н. Политическая метафорика публицистического текста: возможности лингвистического мониторинга // Язык средств массовой информации. — М.: Изд-во МГУ, 2003. — С. 134-140.
5. Володина М. Н. Язык массовой коммуникации особый язык социального взаимодействия // Язык средств массовой информации. - М., 2008. С. 6-47.
6. Добросклонская Т.Г. Вопросы изучения медиатекстов. Опыт исследования современной английской медиаречи — Москва. 2010. — 286с.
7. Марченко Н. Г. Социальная сеть “Вконтакте”: лингвопрагматический аспект. Автореф. дисс...канд. филол. наук. — Ростов-на-Дону, 2013. — 21 с.
8. Чернышова Т.В. Фатическое общение В сфере газетной коммуникации // Русский язык: исторические судьбы и современность. Труды и материалы II Международного конгресса исследователей русского языка. М.: Изд-во МГУ, 2004. — С. 442-443.
9. Nasrulloeva N.S. Uzbek va ingliz tillarida komp'yuter va internet zhargonlarining chogishtirma tadkiki (A cross-sectional study of computer and internet jargon in Uzbek and English), extended abstract of candidate's thesis, Samarkand, 2021, 57p.
10. Alimov B.S. Xorijiy va milliy ommaviy axborot vositalarida O'zbekiston imijini yaratish tamoyillari va istiqboli. (1991-2017-yillar OAV materiallari misolida). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dissertatsiya, avtoreferat. 2018. — 54b.
11. Ataboyev N. Mediamatnlar tilning ijtimoiy ifodasi hamda til boyishining asosiy resurslari haqida. “Foreign languages in Uzbekistan” journal. 2024. vol.10, No 1 (54), pp.60-75
12. Qosimova N. Onlayn jurnalistika. 2019. — 301b.
13. O'rinboyeva D., Sodiqova B. Xalq og'zaki ijodi asarlarida so'zlashuv nutqi elementlari. Ilmiy metodik elektron jurnal. // <https://www.journal.fledu.uz/> xalq og'zaki ijodi asarlari tilida so'zlashuv nutq elementlari.
14. Yo'ldoshev M. Badiiy nutq va uning lingvopoetik tahlili asoslari. 2006. — 26-27b.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 6 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 6

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 6

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000